

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.N.Shokirova

Amaliy ishlatiladigan yakka insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash va ularning samaradorligini aniqlash.....734

G.N.Shokirova

Aralashma insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash samaradorligini aniqlash738

M.A.Abdurahimova

O'zbekiston hududida o'suvchi dorivor o'simliklarni dorivorlik xususiyatini o'rgatish orqali talabalarning tibbiy savodxonligini rivojlantirish.....742

B.K.Boboyev, O.K.Usmonov, S.Sh.Kabilov, M.B.Xoliqov, M.B.Maxammadaliyev

Innovatsion texnologiyalar asosida chorvachilik sohasini rivojlantirish.....745

U.B.Mirzayev, X.A.Abduxakimova

Farg'ona vodiysi bo'z va cho'l mintaqasi tuproqlarining unumdorligi.....749

G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova

O'simliklarni oziqlanishi va o'g'it fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish754

D.Sh.Sultonov

O'zbekiston po'stloqxo'r qo'ng'izlarining taksonomik ro'yxati.....757

GEOGRAFIYA**Y.I.Ahmadaliyev, N.A.Fattoxov**

Factors of pollution of the geoecological condition of agglomerations (on the example of Fergana-Margilan agglomeration)762

O.I.Abduganiev, Kh.Abdullaeva

Agrotourism as a factor of sustainable rural development765

I.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov

Transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishning ekologik-geografik asoslari.....770

R.T.Pirnazarov, S.I.Usmonova

Ulkan to'g'onlar geografiyasi va ular bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar778

R.Y.Xolikov, I.Y.Zikirov

Farg'ona vodiysi reliefini qiyalik darajasi va uni GIS dasturlari yordamida kartalashtirish783

A.A.Xamidov

O'zbekistonda zoogeografik tadqiqotlarning rivojlanishi788

R.T.Pirnazarov, Sh.N.Axmadjonova

O'rta Osiyodagi to'g'onli ko'llarning genetik turlari va ularni tasniflash masalalari793

N.O'.Komilova

Ijtimoiy-geografik yondashuv asosida etnoekologik madaniyatni o'rganish masalasi.....798

J.J.Mamatisakov

O'quvchilarni geolog kasbiga qiziqtirishda maktab geografiya ta'limining o'rni803

D.B.Kosimov, Z.I.Mamirova, Sh.S.Sobirova

Ekologik-xo'jalik holatni baholash asosida yerdan foydalanishning hududiy tarkibini takomillashtirish807

L.M.Saydaliyeva

Sakral landshaftlarni xosil bo'lishining tabiiy - tarixiy jihatlari813

A.E.Madraximov

Joy Relyefi va uning o'zgarishi haqida ma'lumot beruvchi geografik nomlar.....819

EKOLOGIYA**M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva**

Qishloq xo'jaligida yerni boyitishda don dukkakli o'simliklarning ro'li822

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Analysis of macro and micro elements in the biologically active supplement "AS-OROM"827

M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva

Sansevieriya (Sansevieria) o'simligining ayrim bioekologik xususiyatlari va uni yetishtirish texnologiyasi831



UO'K: 631.633

O'ZBEKISTON HUDUDIDA O'SUVCHI DORIVOR O'SIMLIKLARNI DORIVORLIK XUSUSIYATINI O'RGATISH ORQALI TALABALARNING TIBBIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH**РАЗВИТИЕ МЕДИЦИНСКОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПУТЕМ ОБУЧЕНИЯ ЛЕЧЕБНЫМ СВОЙСТВАМ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ, ВЫРАЩИВАЮЩИХСЯ В УЗБЕКИСТАНЕ****DEVELOPMENT OF MEDICAL LITERACY OF STUDENTS BY TEACHING THE MEDICINAL PROPERTIES OF MEDICINAL PLANTS GROWING IN UZBEKISTAN****Abdurahimova Muhabbathon Alijonovna**

Farg'ona davlat universiteti, Aholi tomorqalaridan samarali foydalanish va dorivor o'simliklar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada, O'zbekiston o'rmonlari turli-tuman dorivor daraxt-buta va o't o'simliklariga boyligi bilan ajralib turadi. Insoniyat xayoti o'simliklar olami bilan uzviy bog'langan, O'simliklardan nafaqat oziq-ovqat, balkim biologik faol moddalar manbai sifatida keng foydalanilganlar. Dorivor o'simliklardan 5000 yil avval davolash maqsadlarida qo'llanilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Dorivor o'simliklar uzoq tarixiy davrlar mobaynida dorivor vositalarning yagona manbai bo'lib xizmat qilgan.

Аннотация

В статье леса Узбекистана отличаются богатством разнообразных лекарственных деревьев, кустарников и трав. Жизнь человека неразрывно связана с миром растений. Растения широко использовались не только как пища, но и как источник биологически активных веществ. Есть сведения, что лекарственные растения использовались в лечебных целях еще 5000 лет назад. Лекарственные растения на протяжении долгих исторических периодов служили единственным источником лекарственных средств.

Abstract

In the article, the forests of Uzbekistan are distinguished by the richness of a variety of medicinal trees, shrubs and herbs. Human life is inextricably linked with the plant world. Plants were widely used not only as food, but also as a source of biologically active substances. There is evidence that medicinal plants were used for medicinal purposes as early as 5,000 years ago. Medicinal plants have served as the only source of medicines for long historical periods.

Kalit so'zlar: o'rmon, dorivor, daraxt-buta, o't o'simlik, texnik xomashyo.**Ключевые слова:** лес, лекарственное, древесно-кустарниковое, травянистое растение, техническое сырье.**Key words:** forest, medicinal, tree-shrub, herbaceous plant, technical raw material.**KIRISH**

O'zbekiston o'rmonlari turli-tuman dorivor daraxt-buta va o't o'simliklariga boyligi bilan ajralib turadi. Insoniyat xayoti o'simliklar olami bilan uzviy bog'langan, chunki ular insonni to'ydirgan, kiyintirgan, davolagan, quritilgan, dorivor va texnik xomashyo manbai bo'lib xizmat qilgan. Dorivor o'simliklar insoniyatga juda kadim zamonlardayok ma'lum bo'lgan. O'simliklardan nafaqat oziq-ovqat, balkim biologik faol moddalar manbai sifatida keng foydalanilganlar. Dorivor o'simliklar uzoq tari xiy davrlar mobaynida dorivor vositalarning yagona manbai bo'lib xizmat qilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Sharq tabobatining yetuk namoyondalari, o'z davrining mashxur shi- fikorlari buxorolik Abu Ali Ibn Sino, xorazmlik Abu Abdallax Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Bakr Muxammad ibn Zakariya ar- Roziy, Abu Rayxon Muxammad ibn Axmad al-Beruniy, Arabmuxammad- xon ugli Abdulgozixon, Ismoil al-Jurjoniylar va boshqalarni butun dunyo taniydi. Ular o'zlarining tabobat

BIOLOGIYA

faoliyatlarida dorivor o'simliklardan turli kasalliklarni davolashda muvaffaqiyatli foydalanganlar va bu xaqida yozma ma'lumotlar ko'rinishida boy meros qoldirganlar.

Uzoq vaqtlar davomida butun dunyo xalqlarining asosiy dorivor vositalari shifobaxsh o'simliklar xom-ashyosi asosida tayyorlanib kelingan. Shifobaxsh o'simliklar zaxarli emas, yoki kam zaxarli, eng asosiysi asorat qoldirmaydi, ular tarkibida biologik faol moddalar ko'p va inson organizmiga uzoq vakt davolovchi ta'sirini o'tkazib turadi. XX asrda sintetik kimyo jadal rivojlandi, sintez yo'li bilan juda ko'plab yangi, tez xamda kuchli ta'sir etuvchi dorivor moddalar yaratildi, lekin ularni muntazam ravishda iste'mol qilish inson organizmi strukturasi va xayotiy funksiyalarini buzilishiga olib kelishi ma'lum bo'ldi. Sintez yuli bilan yaratilgan dorilarni 25% dorivor o'simliklar moddalari bilan bog'likdir.

O'zbekiston xududida tabiiy xolda 4500 turga yaqin yuksak o'simliklar tarqalgan, ularning 1200 ga yaqin turlari dorivorlik xususiyatlariga ega. Xozirgi paytda Respublikamizda 112 turdagi dorivor o'simliklar rasmiy tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan bo'lib, ularning 80%ni tabiiy xolda o'suvchi o'simliklarni tashkil etadi.

O'zbekistonda dorivor o'simliklardan ko'prok anor, achchikmiya, bodom, dorivor gulxayri, yongok, jag-jag, zubtutum, isiriq, itsigek, omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo't, shildirbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, qizilcha, qoqio't, zirk, na'matak va boshqalardan ko'proq foydalanilgan. Achchikmiyadan - paxikarnin, isirivdan - garmin, itsi- gekdan - anabazin, omonkoradan - galantamin, shildirboshdan sferofizin alkaloidlari olinadi. Anor po'stidan gijja xaydovchi pelterin tanat va ekstrakt tayyorlanadi. Dorivor gulxayri preparatlari balg'am ko'chiruvchi va yumshatuvchi, jag-jag va lagoxilus dorilari qon ketishni to'xtatuvchi, pista bujuni va choyo'tdan tayyorlangan dorilar me'da-ichak kasalliklarini davolovchi vosita sifatida ishlatiladi. Dorivor o'simliklar ta'sir etuvchi moddalari tarkibiga qarab alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vi- taminli o'simliklarga ajratiladi. Farmakologik ko'rsatkichlariga qarab - tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak tomir tizimiga ta'sir qiluvchi, markaziy nerv tizimini ko'zg'atuvchi, kon bosimini pasaytiruvchi va boshqa dorivor o'simliklar guruxlariga ajratiladi.

O'simliklardan sof xolda ajratib olingan kimyoviy birikmalar ba'zan tirik organizmga kuchli ta'sir qiluvchi zaxarli biologik faol moddalar bulishi mumkin. Ammo ayrim o'simlikning uzi xam zaxarli bulishi mumkin. Masalan: kuchala, parni, isirik, Turkiston adonisi (sari'gul), omonkora, afsonak, achchikmiya (eshakmiya), kizilcha (efedra) va boshqa zaxarli o'simliklar xisoblanadi. Lekin shu bilan birga bir qancha oziq-ovqat massadida keng foydalaniladigan o'simliklardan shifobaxsh vosita sifatida foydalansa bo'ladi. Bunday o'simliklarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: anor, o'rik, bexi, anjir, shotut va jiyda, chilonjiyda, olxuri, zirk, na'matak, kashnich, shivit, garmdori, zigir, turli xil o'simlik moylari, murch, xantal, zanjabil, dolchin, zarchava, qalampirmunchoq (gvozdika) va boshqalar.

O'simliklarning ko'pchiligi o'zida zaxarli bo'lmagan biologik faol moddalar saqlovchi va turli kasalliklarni davolash uchun qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklardir. Qadim zamonlarda odam o'zini yomon sezgan, kasallangan, yaralangan, shikastlangan xollarda dardiga davoni atrofidagi o'simlik dunyosida axtargan va ularning birortasidan foydalangan va shu tariqa shifo topgan. Xozirgi paytda xam yovvoyi tabiatda biror xayvon kasallikka chalinsa, dardiga davoni aksariyat o'simliklardan topadi. Kasallikdan shifo topgan bulgan xayvon keyinchalik (boshqa sog xayvonlar xam) shu o'simlikni kayta iste'mol kilmaydilar.

Demak, ibtidoiy inson xam o'z kasalligini ongsiz yoki ongli ravishda o'simlik, yoki uning organlari (gullari, mevalari, pustlogi, ildizi) bilan davolay boshlagan. O'simlik dunyosi doimo insonni ozik-ovkat, dorivor vositalar, kiyim-kechak va qurilish materiallari bilan ta'minlagan, ya'ni inson o'ziga kerakli barcha narsalarni tabiatdan olgan.

Shunday ekan, o'simliklarni dorivor vosita sifatida inson tomonidan ko'llanish tarixini o'sha davrdan, ya'ni inson o'zini birinchi marta o'simlik bilan davolagan ilk davrlar davomida boshlangan deb xisoblash mumkin. Butun dunyo xalqlarining ming yillar davomida asosiy shifobaxsh vositalari dorivor o'simliklar va ulardan olingan shifobaxsh ne'matlar asosida tayyorlangan. Kimyo fanini rivojlanishi natijasida dori olishning sintetik, tabiatda uchramaydigan kimyoviy birikmalar, shu jumladan, dorivorlik xususiyatiga ega sun'iy moddalar ko'plab sintez qilina boshlandi. Natijada ilmiy tibbiyotda dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish va ulardan foydalanish bir oz e'tibordan chetda qoldi. Lekin xalq orasida xamda an'anaviy tibbiyot yaxshi taraqqiy etgan davlatlarda, ayniqsa

Janubi-Sharkiy Osiyo (Xitoy, Xindiston, Yaponiya, Koreya) xamda Afrika davlatlarida dorivor o'simliklar xamon asosiy davolovchi vositalar sifatida keng qo'llaniladi.

Yevropa zaytuni (Maslina yevropeyskaya) - *Olea europaea* L.

Zaytun may - iyun oylarida gullaydi, mevasi sentabr - dekabrda pishadi. Bu qimmatli daraxt O'rta yer dengizi atroflarida, Qrim, Kavkaz va Markaziy Osiyoning janubiy subtropik mintakalarida o'stiriladi. Zaytun eng qadimgi madaniylashtirilgan daraxt turi xisoblanadi. Mevasidan olinadigan moyi qimmatli xom-ashyo xisoblanadi. Mevalari to'liq yetilganda extiyotlik bilan yig'ib olinadi va moy olish uchun zavodlarga yuboriladi. Mevasida 70%, urug'ida 30% zaytun moyi buladi. Moy emulsiyasi buyrak, o't pufagi va o't yullari, jigar, qovuq va siydik yo'llarida paydo bo'lgan toshlarni tushirishda xamda me'da- ichak kasalliklarida qo'llaniladi. Moyidan yana ba'zi dori moddalarning eritmalari va surtmalarini tayyorlash uchun foydalaniladi. Bundan tashqari, moyi yumshoq surgi ta'siriga ega. U «Olimentin», «Sistenal», «Enatin», «Rovatin», «Rovaxol» kabi kompleks preparatlar tarkibiga kiradi. Zaytun moyi xazmi yengil shifobaxsh bo'lib, oziq-ovqat maksadlarida keng ishlatiladi va undan texnikada xam foydalaniladi.

Oddiy anjir - (Injir obiknovenniy) - *Ficus carica* L.

Bu mevali o'simlik tutdoshlar - Mogaseaye oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 8 m gacha yetadigan bo'ta yoki kichik daraxt. Barglari yirik umumiy ko'rinishi yumaloq-tuxumsimon yoki tuxumsimon, uch-besh bo'lakli bo'lib, uzun bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket joylashgan. Mayda, ko'rimsiz gullari noksimon, uchi teshik to'pgulning ichiga o'rtnashgan. Mevasi noksimon yoki yassi sarik yoki to'kkizil-ko'ngir rangli, sershira tup meva. Anjir yovvoyi xolda Tojikiston, Turkmaniston janubidagi kuruk subtropik xududda va Kavkaz subtropiklarida uchraydi. Anjir O'zbekistonda, Kozogiston, Rossiyaning Krasnodar o'lkasi, Kavkaz va Krimda madaniy xolda ko'plab navlari o'stiriladi, ularni sovukdan saklash uchun kishda ko'miladi. Tibbiyotda anjirning bargi va mevasi ishlatiladi. Mevasi tarkibida 20,3% gacha (kuritilganida 75%) kandlar, vitamin V va S, karotin, organik (oksalat, limon, olma, sirka) kislotalar, fitsin, amilaza va proteinaza fermentlari va boshka biologik faol moddalar, bargida furokumarinlar (psoralen, bergapten va boshkalar) bor. Mevasi surgi dori - kafiol tarkibiga kiradi. Bargining furokumarinlar summasi preparata - psoboran eritma va tabletka xolida pes-vitiligo kasalligini davolashda ishlatiladi. Anjir mevasi tarkibida fitsin fermenta bo'lgani uchun u yana tromboemboliya kasalligini, ko'p mikdorda kandlar va kaliy tuzlari saklaganligi uchun yurak-kon tomir kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Abu Ali ibn Sino anjir mevasini balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida yeyishni, yo'talni qoldirish uchun mevasini sutda pishirib, so'ng iste'mol qilishni buyurgan. Anjir mevasi xalq tabobatida gastrit, surunkali qabziyatni davolash uchun xamda balg'am ko'chiruvchi va siydik xaydovchi vosita sifatida ishlatiladi.

XULOSA

Shunday qilib, O'simliklarda organik va noorgakik moddalar mavjud bo'lib, ular o'simlikni terapevtik samarasini aniqlab beradi. Xar bir dorivor o'simlik keng spektrdagi shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lib, uning bu xususiyatini tarkibidagi kimyoviy birikmalar va mikroelementlar belgilab beradi. Bir o'simlikdan olingan fitopreparat bir paytning o'zida xam og'riqni qoldiruvchi, xam sedativ, xam kardiologik ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gammerman A.F., Kadayev G.N., Yassenko-Xmelevskiy A.A. Lekarstvenniye rasteniya (rasteniya-seliteli). - Moskva, Visshaya shkola,
2. Dorivor va ozukabop o'simliklari plantatsiyalarini tashkil etish va xom-ashyosini tayyorlash buyicha yuriksoma (tuzuvchilar: B.Y. Tuxtayev, T.X. Madkamov, A.A. Tulaganov, A.I. Mamatkarimov, A.V. Maxmudov, M.U. Allayarovlar) - Toshkent,
3. Dushenkov V., Raskin I. Novaya strategiya poiska prirodnix biologicheskix aktivnix veshchestv // Fiziologiya rasteniy, 2008, tom 55,
4. Yermakov B.S. Lesniye rasteniya v vashem sadu (plodovo-yagodniye kustarniki). Moskva, «Lesnaya promishlennost»,
5. Zemlinskiy S.YE. Lekarstvenniye rasteniya SSSR. - Moskva, Medgiz. 1958.
6. Isxakov S.I. «Kanon» Ibn Sino nastolnaya kniga vrachey srednevekovyaya i sovremennosti // Avitsennovskiy chteniya 1977 goda: Tezisi dokladov, - Dushanbe.
7. Karimov V.A., Shomaxmudov A.SH. Xalq tabobati va ilmiy tibbiyotda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar. - Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1993.-320 b.
8. Karimov U.I. Beruniyning «Saydana» nomli asari xaqida // Beruniy tug'ilgan kunining 1000 yilligiga bag'ishlangan to'plam: - Toshkent, UzSSR «Fan» nashriyoti, 1973. - B.